



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SIRDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI


2023- YIL YANVAR-AVGUST OYLARI




Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2023- yil yanvar-avgust oylarida)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalari tomonidan 9424,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqarish sanoati hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 9,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 59,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat

mln. so'm

Yanvar-avgust

FHI,% da



2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 317,1 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,5 % ni tashkil etdi.

2022- yil
yanvar-avgust


55,8 %

2023- yil
yanvar-avgust

56,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,0 % ni (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – 5,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,0 % (3,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,2 % (17,8 %) va quyi texnologiyalisi – 70,8 % (73,3 %) ni tashkil etdi.


■ 2022- yil ■ 2023- yil









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,0 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 142,8 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 8,8 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 37,2 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,8 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 70,5 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *



* Yanvar-avgust oylari yirik korxonalar bo‘yicha



2023- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 13,1 ming tonna Etilen polimerlardan tayyorlangan qop va sumkalar (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,5 % oshgan), 1,1 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (40,1 % oshgan) hamda 15,7 ming tonna Kalava ip (1,9 % ga kamaygan) ishlab chiqarish va o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna	13251,0	2302,0	-10949
Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna	759,8	1064,8	305,0
Etilen polimerlardan tayyorlangan qop va sumkalar, ming t.	12,4	13,1	0,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	43,5	26,3	-17,2
Paxta tolasi, ming t.	13,9	19,8	5,9


Yanvar-avgust oylari yirik korxonalar bo'yicha

Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi 0,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 29,3 % ga ko'paygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % gacha ko'paydi, fizik hajm indeksi esa, 2,4 martaga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 12,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 84,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,8 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 466,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 20,4 % ga o'sgan va ishlab chiqarish hajmi 1 586,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 64,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 65,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 16,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2022- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 149,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 16,1 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1 640,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 61,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 89,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 205,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 51,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 23,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2022- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 111,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi 142,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 263,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 53,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 77,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 59,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4 007,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,5 %) ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,8 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	10 941,6	11 316,7	375,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	147,9	95,9	-52,0

yanvar-avgust oylari yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 40,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 %) ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-avgust	2023- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	25,1	26,5	1,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	10,3	9,8	-0,5

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 42,7 % ga kamaygan hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 3,0 % ga kamayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 664,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-avgust

75,7%

2023- yil
yanvar-avgust

78,0%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-avgust

24,3%

2023- yil
yanvar-avgust

22,0%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 1,3 % (2022- yil yanvar-avgust oylarida 59,7 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib 22,3 %, Sirdaryo tumani 20,9 %, Yangiyer shahri 17,4 % hamda Sayxunobod tumani 8,2 % Boyovut tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (112,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Guliston tumani (229,6 %), Oqoltin tumani (180,5%), Yangiyer shahri (169,6%) hamda Sardoba tumani (145,3 %) qayd etildi.